



Gulchexra SHUKURULLAYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: gulinmsm@gmail.com

O'zMU professori, f.f.n L.Muxammadjonova taqrizi asosida

RETRIBUTIVIZM VA JAZO AXLOQIY NAZARIYA SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada retributivizm va jazoning axloqiy nazariya asoslari tadqiq qilinadi. Retributivizm, odatda, jazo ishlatishda inson huquqlari va axloqiy prinsiplarga tayangan holda, aybdorlar jazoga loyiq bo'lishlari kerakligini ta'kidlaydi. Mazkur nazariyaning asosiy vazifasi - jinoyat sodir etgan shaxsга nisbatan adolatli jazo berishdir. Bu jazo aybdorning qilgan jinoyatiga mos kelishi va u bilan muvozanatda bo'lishi lozim.

Maqolada jazo adolatini ta'minlashdagi rol va jinoyatni jazolash orqali huquqni muhofaza qilish va ijtimoiy tartibni saqlash uchun zarur bo'lgan axloqiy me'yorlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Retributivizm, jazo, jinoyat, adolat, axloqiy nazariya.

РЕТРИБУТИВИЗМ И НАКАЗАНИЕ КАК МОРАЛЬНАЯ ТЕОРИЯ

Аннотация

В статье исследуются основы этической теории ретрибутивизма и наказания. Ретрибутивизм, как правило, подчеркивает, что виновные должны быть наказаны, опираясь на права человека и этические принципы при применении наказания. Основная задача этой теории - назначение справедливого наказания лицу, совершившему преступление. Это наказание должно соответствовать преступлению виновного и быть соразмерным ему.

В статье рассматривается роль наказания в обеспечении справедливости и приводятся моральные нормы, необходимые для защиты правопорядка и поддержания общественного порядка посредством наказания за преступления.

Ключевые слова: Ретрибутивизм, наказание, преступление, справедливость, этическая теория.

RETRIBUTIVISM AND PUNISHMENT AS A MORAL THEORY

Annotation

This article examines the moral foundations of retributivism and the theory of punishment. Retributivism generally emphasizes that offenders deserve punishment, based on human rights and ethical principles in the application of punishment. The main objective of this theory is to administer just punishment to the person who committed the crime. This punishment should be proportionate to the crime committed by the guilty party and be in balance with it.

The article presents the role of punishment in ensuring justice and the moral standards necessary for law enforcement and maintaining social order through criminal punishment.

Key words: Retributivism, punishment, crime, justice, moral theory.

Kirish. Mamlakatimiz huquqiy tizimi o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'lib, milliy-diniy urf-odatlar, shariat va roman-german huquqiy oilasiga mansub normalarini qamrab oladi. So'ngi yillarda xalqaro huquqiy normal, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasini milliy qonunchilikda aks ettirish borasida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirildi hamda qonunlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Ma'lumki, har qanday davlat va jamiyatning huquqiy xarakterini asosan jazo tizimi belgilaydi. Umuman olganda, bu mavjud davlat-huquqiy tizimning insonparvarlik va demokratiklik darajasi haqida bilish imkonini beradi. Shunga ko'ra, jazo va uni ijro etish tamoyillariga taalluqli siyosiy va huquqiy nazariyalarni o'rganish davlat va jamiyat huquqiy rivojlanishining holati va asosiy vektorini aniqlash imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jazoni ijtimoiy hayotning tabiiy qismi sifatida ko'rish kerak. Biroq, bunday harakatlarning zarurligi ba'zi asoslarni talab qiladi. Siyosiy va huquqiy tafakkurda bir qancha nazariyalar paydo bo'ldi, ularda ijtimoiy institut sifatida jazoning tamoyillari va asoslari faol muhokama qilinadi. Shunday nazariyalardan biri retributivizm tushunchasidir. Bu tushuncha doimo jazo tushunchasi bilan bog'liq holda keladi.

Ushbu nazariyaga ko'ra, jinoyat orqali jamiyatga jismoniy, axloqiy yoki huquqiy zarar keltirgani sababli, jinoyatchi adolatli jazo bilan jazolanishi ya'ni, jazo biroq manfaatlar yoki maqsadlarning natijasi sifatida emas, balki, adolatligi va o'rnidan kelib chiqishi zarur. Shu tufayli retributivizmni axloqiy va huquqiy nazariya deyishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sud-huquq tizimida

retributivizm hamda jazo masalalari dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bu nazariyalar bir qancha faylasuflari asarlarida ham keltirilgan. Xususan, nemis falsafasi vakillari Immanuel Kant (1724-1804) va Gegel (1770-1831) ijodi bilan bog'liqdir. I.Kantning "Metaphysics of Morals" asari retributivizmni haqidagi asosiy falsafiy manbalaridan biridir. Kant adolatni axloqiy jihatdan ta'riflar ekan, jinoyi adolatni ham ma'lum bir axloqiy o'ziga xoslik bilan bog'laydi. U jinoyatni sodir etgan shaxsning javobgarligini muhim deb bilgan va "har bir inson o'z harakatlari uchun mas'ul" degan tamoyilni ilgari surgan. Bu nazariya I.Kantning asarlarida to'liq rivojlangan bo'lib, uni retributivizm nazariyasining asosiy nazariyotchilaridan biri deb baholash mumkin.

Ingliz faylasufi Jon Lokk ham o'z qarashlarida jamiyatda huquqiy adolatni tashkil etishda retributivizmning roli haqida fikr yuritadi. Jon Lokk "Second Treatise of Government" asarida jinoyi jazolarni shaxsning huquq va erkinliklariga tahdid sifatida ko'radi va jazolashning adolatli asoslarini ishlab chiqadi.

Amerikalik professor Walter Berns o'zining "For Capital Punishment" asarida, o'lim jazosi va retributivizmni jamiyatdagi adolat va axloqiy tamoyillar bilan bog'laydi. Yana bir amerikalik professor Mark D. White ham "The Ethics of Punishment" asarida jazoning axloqiy jihatlarini, jumladan retributivizmning tamoyillarini o'rganadi. Asarda jazolarni belgilashda adolat va axloqiy masalalarga qanday yondashish kerakligi haqida so'z boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda retributivizm, ayniqsa uning axloqiy jihatlarini, ko'plab tadqiqotchilar tomonidan falsafiy nuqtai nazarlardan o'rganilmoqda. Tadqiqotchilar

retributivizmining nazariy asoslarini tahlil qilmoqda, bu tahlillar esa jazo va adolat tushunchalarining falsafiy fundamentlarini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotda bir nechta metodologik yondashuvlar va usullarni qo'llash mumkin, chunki retributivizmining ta'siri va mohiyati faqat bitta yondashuv orqali o'rganib bo'lmaydi. Metodlar orasida analitik, empirik, huquqiy va axloqiy yondashuvlar mavjud bo'ladi.

1. Nazariy-analitik metod: Bu metod tadqiqotning asosiy usuli bo'lib, retributivizm nazariyasining asoslarini, uning tarixiy va nazariy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Nazariy-analitik metod yordamida jazo va adolatga oid falsafiy va axloqiy tushunchalar tahlil qilinadi. Bu metod orqali retributivizmining zamonaviy jazo tizimlarida qanday aks etayotganini, uning ijtimoiy va axloqiy izohlarini ishlab chiqish mumkin.

2. Yuridik-huquqiy metod: Retributivizmining amaliy qo'llanilishini o'rganish uchun yuridik metoddan foydalaniladi. Bu metod yordamida retributivizmining huquqiy tizimdagi yeri va uning jazo amaliyotlariga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish mumkin. Jazo tizimida retributivistik yondashuvning qanday qo'llanilishi, uning samaradorligi va muammolarini o'rganish maqsadida huquqiy hujjatlar, qonunlar, sud qarorlari va yuridik manbalar tahlil qilinadi.

3. Empirik metod: Empirik metod orqali jazo tizimidagi retributivistik yondashuvning amaliy ta'sirini o'rganish mumkin. Bu metodda so'rovnoma, intervyular, statistik tahlillar va boshqa empirik tadqiqotlar ishlatiladi. Jazo olgan shaxslar, sudya va advokatlar bilan o'rganishlar olib boriladi, shuningdek, jamiyatning jazo tizimidagi retributivizmga bo'lgan munosabatini aniqlash uchun so'rovlar o'tkaziladi.

4. Tahliliy usul (case-study): Tahliliy usul yordamida aniq huquqiy holatlar, sud qarorlari yoki jazo olayotgan shaxslarning amaliy tajribalari tahlil qilinadi. Keng tarqalgan yoki mashhur jazo tizimlaridagi retributivistik yondashuvlarni o'rganish, real hayotdagi holatlar va sudlar qarorlariga oid tahlillar olib boriladi. Ushbu metod orqali retributivizmining jazo tizimidagi samara va zaif tomonlari yanada yaqqol ko'rinib oladi.

5. Axloqiy tahlil metodlari: Axloqiy tahlil metodlari retributivizmining axloqiy asoslarini chuqur o'rganish uchun ishlatiladi. Bu metod orqali retributivizmining adolatli va axloqiy jihatlari, uning etik dilemmalari, adolat va jazo o'rtasidagi bog'liqliklar tahlil qilinadi. Retributivizmining etik muammolari va uning ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini o'rganish uchun axloqiy nazariyalar, falsafiy va diniy yondashuvlar bilan solishtiriladi.

Tahlil va natijalar. Tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, retributivizm axloqiy nazariya bo'lib, jinoyatni sodir etgan shaxsni unga mos keladigan jazo bilan jazolash zarurligini ta'kidlaydi. Bu nazariya asosan qonun ustuvorligi, adolat va inson huquqlarini himoya qilish prinsiplariga tayangan holda ishlaydi. Retributivizm va jazo axloqiy nazariyasi, jinoyatchiga jazo berishning adolatligi va uning o'ziga xos axloqiy asoslariga yo'nalgan nazariyadir. Ushbu nazariyaga ko'ra, jazo jinoyatning o'ziga mos bo'lishi kerak, va jazo jinoyatning zarurati emas, balki uning o'zini tan olish va adolatni ta'minlash uchun zarurdir.

Bugungi kunda, jinoyat va jazoni shakllanish nuqtai nazaridan jazoni insonparvarlashtirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash tobora keskinlashib bormoqda. Ko'p yillardan buyon tadqiqotchilar bu borada ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jinoyat va unga beriladigan jazo qadimdan shakllanib kelgan tizim hisoblanadi. Qadimgi Mesopotomiya hukmdori Hammurapi tarixda Xammurapi qonunlari (akkad tilida: Inu Anum sirum), qonunchilik kodeksini ishlab chiqqan hukmdor sanaladi. Qonunlar to'plamining asosiy qismida mamlakatdagi jinoiy ishlarga oid, huquqqa, sud ishlarini yuritishga, xususiyl mulk huquqining buzilishiga (o'g'irlik va talash) va jangchilar huquqiga oid bandlar birma-bir ko'rsatib o'tilgan. Hammurapi qonunlarida tarixda ayovsizligi bilan nom qozongan bo'lsada, ba'zi holatlarda, jinoyatga yarasha jazo berilishini ko'rishimiz ham mumkin. Masalan, jabrlanuvchining ko'zlariga zarar yetkazilsa jazo sifatida jinoyatchining ko'ziga ham zarar yetkazilgan.

XIII asrda yashagan italyan gumanisti Leanardo Bruni Aretino fikricha, jinoyat va jazo o'rtasidagi munosabat adolat

orqali ko'rsatilishi shart. Shunga o'xshash fikrni boshqa italyan Uyg'onish davri gumanisti Podjo Brachcholini "adolat burchi quyidagilardan iborat: har bir kishiga qilmishiga yarasha ya'ni mukofot yoki jazo olmoqni" aytib o'tgan.

Retributivizm va jazoning asosiy tarafdori I.Kant ham bu borada fikrlar bildirib o'tadi. Nemis faylasufi Immanuel Kant jazolashning absolyut nazariyasi deb ataladigan nazariyani yanada rivojlantiradi. Jinoiy jazo - bu jinoyat uchun adolatli jazo, davlatning jinoyatchiga uning sodir qilgan yomon ishi uchun muayyan azob-ububat yetkazishidir. Kant jinoyat bilan jazo o'rtasidagi tenglik g'oyasini himoya qiladi. Kantning fikricha, jinoyatchi javobgar bo'lishi va uning jinoyati uchun adolatli jazo olishi kerak, chunki u «inson shaxsiyatiga» va uning qadr-qimmatiga xilof bo'ldi. Kant jinoyatchining xatosi uchun mos jazo berishni juda muhim deb hisoblagan.

Retributivizm, aksariyat holdarda, utilitarizm bilan solishtiriladi. Agar utilitarizmining maqsadi-jinoyatchini jamiyatga qaytarish yoki jinoyatlarni kamaytirish uchun samarali vosita sifatida foydalanish bo'lsa (ya'ni, u jinoyatlarning qayta sodir etilishini oldini olish yoki jinoyatchini rehabilitatsiya qilish maqsadida o'tkaziladi, shuningdek, aybni jazolashdan ko'ra, uning oldini olishga urg'u beradi.), retributivizm esa jazo o'zi uchun, adolat uchun kerak bo'ladi. Bu nazariyaga ko'ra, jinoyatchi o'z jinoyati uchun javobgar bo'lishi kerak va jinoyatlar uchun jazo jamiyatning foydasi uchun emas, balki jinoyatning adolatli natijasini ta'minlaydi.

Axloqiy nuqtayi nazardan, retributivizm eng asosiy jihatda inson huquqlari va adolat konsepsiyalariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Jazo, uning ijtimoiy maqsadi va aniq natijalarga erishishga yo'naltirilganidan ko'ra, jinoyatchiga adolatni tiklash va ularning xatosini bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, retributivizmining markazida «adolat» va «haqqoniylik» tushunchalari joy oladi, chunki har bir jinoyat jinoyatchiga nisbatan aniq bir jazo bilan yanada to'g'ri munosabatda bo'lishi kerakligini anglatadi.

Retributivizm nazariyasi jazo tizimining axloqiy poydevori sifatida muhim o'rin tutadi, chunki u adolatli jazo berishni, ya'ni har bir insonning amallari uchun adolatga mos muomala qilishni talab qiladi. Uning asosiy g'oyasi shundaki, jinoyatchi o'z amallariga mos ravishda jazo olishi kerak. Bu nazariya ijtimoiy tartibni saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim vosita bo'lishi mumkin.

Retributivizmining 4 ta asosiy tamoyili mavjud bo'lib, bulur:

1) Adolat va javobgarlik: retributivizmining asosiy maqsadi - jinoyatni sodir etgan shaxsning adolatli ravishda jazolanishini ta'minlash. Bu jazo, jinoyatning o'ziga mos bo'lishi va uning natijasiga muvofiq bo'lishi kerak.

2) Jazoning o'zi uchun: retributivizm bo'yicha jazo jinoyatchiga qarshi juda aniq, aniq va mos keluvchi bo'lishi kerak, chunki jazo xuddi jinoyatning o'ziga mos bo'lishi kerak. YA'ni, bu nazariyaning nazarda tutishiga ko'ra, jazo jinoyatning qiymatidan kelib chiqib belgilanadi.

3) Shaxsning huquqi va qadr-qimmat: Retributivizm jinoyatchi shaxsning qadr-qimmatini inobatga oladi va u bunday jazoga aniq va rag'batlantirilgan mantiq bilan topiladi. Bu nazariyada jazo jinoyatchini, uning jinoyatlari uchun mas'ul hisoblashga yo'naltirilgan.

4) Jazo va adolatning ta'riflariga muvofiq: Jazo, jinoyatning olib borgan mantiqiy natijalariga javob berishi kerak. Shuning uchun, bu nazariyaning asosiy fikrlaridan biri shuki, jinoyatchi jazoga o'tadi va bu jazo faqat shunchaki ozor berish uchun emas, balki odil va yagona natijaga olib keladi.

Retributivizm "jazo biror maqsadga erishish uchun xizmat qilmaydi" degan tamoyilga asoslanadi, ya'ni jazo olishning o'zi adolatli va o'zaro munosabatlar uchun zarur bo'lgan jihat sifatida qabul qilinadi. Shunday bo'lsa ham, retributivizm nazariyasida ham muammolar mavjud. Uning asosiy muammolari ba'zida jinoyatchining individual holati, ijtimoiy sharoitlari va psixologik sabablari yetarli darajada hisobga olinmaydi, va shuningdek, jazo ko'rinishida qatag'onchilikka olib kelishi mumkin. Bu nazariyaning axloqiy muammolaridan biri shundaki, jinoyatchining yoki jinoyatining obyektiv xususiyatlarini to'liq hisobga olish lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, retributivizm axloqiy nazariya sifatida jinoyatchiga adolatli jazo berishni, uning jinoyatiga to'g'ri mos keladigan javobni ta'minlashni maqsad qiladi. Jazo jinoyatning samarasi yoki manfaatga qaratilgan foydasi uchun emas, balki jinoyatning adolatli javobini ta'minlash uchun zarur bo'ladi. Bundan tashqari, retributivizm jinoyatchiga nisbatan shaxsiy mas'uliyatni belgilovchi va jinoyatning yomonligini tan oluvchi falsafiy va huquqiy nazariyadir.

Shunday bo'lsada ushbu nazariyada ijtimoiy va psixologik omillar yetarli darajada e'tiborga olinmaydi, va shuningdek, ijtimoiy barqarorlik va rehabilitatsiyaga qiziqish ko'rsatish zarur. Bundan kelib chiqib, amaliy hayotda retributivizmning haqiqiy amalga oshirilishi uchun, ijtimoiy rehabilitatsiya va tarbiyalashni birgalikda rivojlantirish muhim bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. G'oyibov N.Y. Huquq falsafasi: Ma'ruzalar kursi. T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
2. Mary Gregor. Metaphysics of Morals (Kant, I. 1797).1991
3. White, M. D. The Ethics of Punishment. Stanford Encyclopedia of Philosophy. 2009.
4. Moore, M. Placing Blame: A Theory of the Criminal Law. Oxford University Press. 1997.
5. Л.Симонцева - аннотация. В статье анализируются основные философские и этические учения о сущности наказания как способа разрешения уголовно-правового конфликта. 2019.
6. Артеменков Михаил Николаевич, Потапенкова Татьяна Игоревна. Критика положений теории "ретрибутивизма" в работах современных исследователей. Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. 2012. Выпуск 12-3
7. Куликов Михаил Вячеславович. "Ретрибутивизм и консеквенциализм в теориях правового наказания" Вестник Кузбасского института, по. 4 (7), 2011.
8. Qosimov, I. Retributivizm va jazo tizimining huquqiy yondoshuvlari. Tashkent Law Review, 2019.
9. Tursunov, J. Jazo tizimi: Retributivizm va adolatning ijtimoiy asosi. Tashkent Journal of Social Sciences, 2019.
10. Ismoilov, M. Jazo tizimida retributivizm va uning amaliyotdagi o'rni. Tashkent University Press, 2021.